

PSIXOLOGIYA FANINING TARIXIY TARAQQIYOTI VA RIVOJLANISHI

*Termiz Davlat Universiteti Psixologiya
ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi
Ulasheva Karomat*

Annotatsiya

Ushbu maqolada psixalogifa fanining antik davrdagi shakllanish jarayoni qadimgi imsonlarning ruh va ong haqidagi tasavvurlari yoritilgan. Yunoniston faylasuflarining psixalogiya rivojiga qo'shgan hissasi, ularning ruh harakat va tabiat o'rtasidagi bog'liqlik haqidagi qarashlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: psixalogiya, antik dunyo ruh, ong, qadimgi yunon faylasuflari, animizm, harakat,, ruvojlantirish, falsafa, tabiat.

Antik dunyoda psixalogiyaning paydo bo'lishi. Bizni o'rab turgan dunyo haqidagi qadimgi tasavvurlar animizm (lot. anima-ruh) bilan bog'liqdir. Animizmida har bir predmetning ruhi bor degan dunyoqarash shakllangan va u harakat hamda rivojlanish manbai hisoblangan. Ruh haqidagi qarashlarning rivojlanishiga qadimgi Yunoniston faylasuflari katta hissa qo'shishgan. Ular tabiatning qayerida harakat va issiqlik bor bo'lsa, o'sha yerda ruh bor deb hisoblashgan. Qadimgi yunon faylasuflari dunyoning mohiyatini uning kelib chiqishini bilishga intilganlar. Shu sababli, ular tabiat, inson, insonning ruhi haqida o'z g'oyalarini ilgari surganlar. Qadimgi yunon faylasuflarining ta'limotlariga ko'ra, dunyoning asosida moddiy narsa yotadi. Ularning fikriga ko'ra, inson ham dunyoning bir qismi sifatida shu moddadan tashkil topadi. Animizmdan gilozoizmga (yunon.— hyle - materiya) o'tish aql inqilobi bo'lgan. Gilozoistlar ruhni tabiiy ilmiy qonunlar nuqtai nazaridan o'rgana boshlashgan.

Gilozozit *Geraklit* (m.a. 530-470 y) tabiatning asosi olovdan iborat deb hisoblagan. "Hamma narsa olovdan paydo bo'ladi va hamma narsa yana olovga aylanadi". U insonning ruhi ham olovdan paydo bo'ladi, degan g'oyani ilgari suradi.

Fales butun mavjudotning, shuningdek, insonning ham tabiati suv deb hisoblagan. Insonning ruhini bug' shaklida tassavur qilgan. Anaksimening fikriga ko'ra, dunyodagi barcha mavjudot havodan tashkil topadi va ruh siyraklashgan havodir.

Gippokrat odamlarni ilmiy tarzda tiplarga ajratishga asos soldi (m.a. 460-377 y). Gippokrat insonlardagi farqlarning manbaini va sababini organizmning ichidan qidiradi. Uning fikriga ko'ra, inson organizmida to'rt xil suyuqlik mavjud. Bular: o't, qon, shilimshiq, qora o't. Gippokrat bu suyuqliklarning nisbatiga ko'ra xolerik, sangvinik, flegmatik, melanxolik, kabi to'rt xil temperament turini ajratgan. U insonlarni to'rt xil temperament turidan biriga mansub deb hisoblagan.

Demokrit (m.a. 460-370 y) dunyoning asosida bitta manba yotadi, olov ham, suv ham, tuproq ham, havo ham dunyodagi barcha turli tuman narsa va hodisalar ham shu manbadan paydo bo'ladi, degan ta'limotni ilgari surdi. U butun mavjudotning asosini materiya deb atagan. Demokrit materiya atomlardan, ya'ni juda mayda, ko'zga ko'rinmaydigan zarralardan tashkil topgan, bu atomlar doimo harakatlanib turadi degan g'oyani ilgari surgan. Uning fikricha atomlar faqat shakl jihatdangina bir-biridan farq qiladi va ular harakatlanganda bir-biriga tegib ketib harakatlari sekinlashadi. Demokrit ruhiy hayotning markazi yurakda deb hisoblagan. U barcha ruhiy atomlarning tanadan butunlay ajralib chiqib ketishi o'limga olib keladi deb hisoblagan. Suqrot birinchi bo'lib ruhni inson axloqining manbai sifatida ko'radi. U savollar berish orqali haqiqatni topish metodining asoschisidir. Ruh - individning psixik xususiyati sifatida aqlli mavjudot bo'lganligi uchun unga xos ekanligini aytgan. Platon esa Suqrotning shogirdi bo'lgan. U ruh materiya bilan hech qanday umumiylikka ega emas deb hisoblagan. Moddiy dunyodan farqli ravishda ruh idealdir degan g'oyani ilgari surgan. Bilish — bu psixikaning tevarak atrof bilan o'zaro ta'siri emas, balki ruhning odam tanasiga kirishdan oldin ideal dunyoda ko'rganlarini eslashidir deb hisoblagan. Ularning fikriga ko'ra, hon tanada vaqtinchalik mavjud bo'lib, tana o'lganidan so'ng, yana o'z dunyosiga qaytib ketadi. O'rta asr psixalogiyasi. Arastu bilan Platon yaratgan ruh haqidagi ta'limot o'rta asrlarga kelib SHarqda ham, G'arbda ham rivojlantirildi. Psixalogiyada bu oqim XII asrlarga kelib metafizik yoki ratsionalistik psixalogiya deb nom oldi. Bu yo'nalishning metafizik deb atalishiga sabab, ruhning, psixik jarayonlarning — hissiy dunyo chegarasidan tashqaridagi g'ayri jismaniy narsa deb tushuntirishidadir. O'rta asr mutafaakkirlarining ruh va ruhiy hayot haqidagi mulohazalari, asosan, ruhning mohiyati, uning kuchi, qobiliyatlari va kelib chiqishi, uning tana o'lgandan keyingi tadbiri, ruhning tanaga bo'lgan munosabati haqidagi masalalarga qaratilgan edi. Deterministlarlar (lot belgilamoq) inson irodasi ham, dunyodagi hamma narsalar singari, sababiyat qonuniga bo'ysunadi, binobarin, insonning barcha irodaviy harakatlari ham erkin emas, balki zarurat bilan, o'z sabablari bilan belgilanadi degan g'oyani ilgari surganlar. Indeterministlar deterministlarga qarama-qarshi inson irodasi va uning xatti-harakatlari har qanday sababiyatdan xoli va hech qanday zaruratga bog'liq emas, degan g'oyani ilgari surganlar. Indeterminizm sof idealistik ta'limot bo'lgan, lekin determinizm esa, materialistik tendensiyalar o'z ifodasini topgan edi. Realistlar — umumiy tushunchalar obyektiv ko'rinishda aks etadi, deb ta'kidlaganlar. Nominalistlar (lot nom, ot) faqat individual sifatlarga ega bo'lgan alohida-alohida narsalargina real mavjuddir degan g'oyani ilgari surganlar. Psixalogiyaning o'rganilish bosqichlari.

1-bosqich psixalogiya psixikaning mexanizmlari, qonuniyatlari va faktlarini o'rganuvchi fan sifatida

2-bosqich xulq-atvor haqidagi fan sifatida

3-bosqich psixalogiya ong haqidagi fan

4-bosqich psixalogiya jon haqidagi fan sifatida. Ongning rivojlanishi: Ong — psixik faoliyatning oliy shakli. U faqat insonga xos fenomendir. Ong, uning mohiyati masalasi eng qadimgi muammolardan biri. Ongni dastlab diniy va mifologik qarashlar doirasida tushuntirishga uringanlar. Ongni diniy tushuntirish uni ilohiy hodisa, xudo yaratgan mo'jiza tarzida talqin qilishga asoslanadi. Ko'pgina dinlarda inson ongi buyuk ilohiy aqlning namoyon bo'lish shakli tarzida tavsiflanadi. Bunday qarashlarning ildizi juda qad. bo'lsada, ular hamon o'zining ko'plab tarafdorlariga ega. Kimki olam va odam yaratilganligini tan olar ekan, ong ham yaratganning qudrati deb hisoblaydi. Ongning mohiyatini izohlashda 2-yo'nalish — bu ong moddiy olamni inson miyasida aks etishi deb tushunish, uni inson tanasi faoliyati bilan bog'lab talqin etishdir. Ayni vaqtda materialistik yo'nalish nomini olgan bunday yondashuvlar doirasida ongning mohiyatini buzib talqin qilish hollari ham paydo bo'ldi. Vulgar materializm deb nom olgan oqim namoyandalarining fikricha, xuddi jigar saf-roni ishlab chiqargani kabi, miya ham ongni ishlab chiqarar emish. Bunday yondashuv natijasida ong ideal emas, moddiy hodisa degan xulosa kelib chiqadi. Vaholanki, safroni ko'rish mumkin, ammo ongni ko'rib ham, ushlab ham bo'lmaydi. Aslida ong tarixi insonning inson bo'lib shakllana boshlashi tarixi bilan bog'liqdir. Inson ham biologik, ham ijtimoiy mavjudot ekan, demak, ong ham biologik va ijtimoiy taraqqiyot mahsulidir. Ong insonning fikr va hislari, sezgilari, tasavvurlari, irodasi va karashlaridan tashkil topgan. O'z-o'zini anglash, xotira, iroda, nutq ongning asosiy jihatlaridir. Hozirgi zamon fani ong materiyaninguzoq davom etgan evolyusiyasining natijasi ekanligini tan oladi. Materiya, tabiat hamma vaqt mavjud bo'lib kelgan, inson esa moddiy dunyoning nisbatan so'nggi taraqqiyotining mahsulidir. Materiya taraqqiyoti, fikrlay oladigan insonning paydo bo'lishi uchun bir necha million yillar kerak bo'lgan. Ong tabiat taraqqiyoti mahsuli, materiyaning xossasidir, barcha materiyaning emas, balki oliy darajada tashkil topgan materiyaning, ya'ni inson miyasining mahsulidir. Lekin ongning bo'lishi uchun miyaning o'zigina bulishi yetarli emas. Ong insonni qurshab turgan tabiiy va ijtimoiy muhit bilan chambarchas bog'langan va shu muhitning ta'sirida faoliyat ko'rsata oladi. Hozirgi zamonda murakkab ijodiy jarayonlarni ham amalga oshiruvchi elektron mashinalar yaratilgan, lekin ular ongning o'rnini bosa olmaydi, chunki ong o'ta murakkab obyektiv mavjudlikdir. Antik davrda falsafa fanining vujudga kelishi. Antik falsafa — falsafaning Antik davrda oid qismi. Qadimgi yunon va Qadimgi Rim falsafasi qismlariga bo'linadi va dastlabki mumtoz falsafa davridan milodiy 529-yilda Vizantiya imperatori Yustinian I buyrug'i bilan Afinadagi so'nggi falsafiy maktab yopilguniga qadar davom etgan. An'analarga ko'ra, dastlabki antik faylasuf Fales, so'nggisi esa Boetsiy hisoblanadi.

Antik falsafa qadimgi yunon donishmandligi va orfizmi an'analari asosida shakllangan bo'lib, uning shakllanishiga Misr, Mesopotamiya va boshqa Qadimgi Sharq mamlakatlarida mavjud donishmandlik va kohinlik ko'rinishlari ta'sir qilgan. Avvaliga mifologik tasavvurlar qurshovida bo'lgan qadimgi yunon tafakkuri keyinchalik o'z predmeti va metodlariga ega alohida faoliyat sohasi sifatidagi falsafa tushunchasining ishlab chiqilishiga sabab bo'ldi, Xristianlik dinining yuzaga kelishiga katta ta'sir ko'rsatdi, umumiy hisobda G'arb sivilizatsiyasi taraqqiyotining tamal toshlaridan biri bo'lmish oqilona fikrlashning asoslaridan birini yaratdi va ijtimoiy ongning o'ziga xos shakllaridan biri bo'lib yetishgan ilm-fanning yaralishiga asos bo'ldi. Demak Antik davr inson tafakkuri va ruhiyatini anglash yo'lidagi birinchi qadamlarga soldi. O'sha davr mutafakkirlarning fikrlari bugungi psixologiya ilmiga yo'l ochib berdi. Shunday ekan antik davr g'oyalari o'rganish — hozirgi zamon insonning ruhiy olamini chuqirroq yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Karimova.B. psixologiya tarixi.(2020)
2. Mavlonova. R.A. va Jo'rayev. M. Pedagogik va psixologik tafakkur tarixi.(2018) 3. Jorayeva. N. Psixologiya tarixida antik davr g'oyalari. (2022)
3. Anikeva psixologiya tarixi (1980)
4. Umumiy psixologiya Jo'rayeva.S.N. Sharafiddinova X.G., Mamaradjabova B.A.(2022).